

USMON NOSIR IJODI VA HOZIRGI ADABIY JARAYON

Gulshoda JO‘NPOLATOVA
NavDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Usmon Nosir ijodini hozirgi davrda o‘rganishning ahamiyati, tarixiy va adabiy manbalardan foydalanishda N.Karimov tajribalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: fenomen, adabiyot, tarix, jadid, mafkura, monografiya, tadqiqot, adabiy, millat, til.

Аннотация: В статье идёт речь о значения исследования творчества Усмана Насыра в современности и анализирован опыты Н.Каримова в использование исторические и литературные источники.

Ключевые слова: феномен, литература, история, джадид, идеология, монография, исследование, литературный, национальность, язык.

Abstract: The article discusses the importance of studying the work of Usman Nasir in modern times and analyzes the experiences of N. Karimov in the use of historical and literary sources.

Key words: phenomenon, literature, history, Jadid, ideology, monograph, research, literary, nationality, language.

Usmon Nosir fenomeni XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida katta adabiy voqeadir. Uning ijodi yangi o‘zbek adabiyoti shakllanayotgan bir davrda o‘zbek ma’rifatchilik adabiyoti–milliy Uyg‘onish adabiyoti bilan yangi tuzum, yangi jamiyat mafkurasi targ‘iboti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan adabiyot o‘rtasidagi halqa sifatida maydonga keldi. U ijod maydoniga kirib kelgan bir paytda jadidchilik g‘oyalari taqiqlangan, jadidlar ta’qib ostiga olingan, yangi tuzum mafkurasi butun jamiyatni o‘zining temir iskanjasiga olgan edi. Milliy Uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilgan fidoyi ma’rifatparvarlar quvg‘in qilindi, fitnalar va ig‘volar qurboni bo‘lishdi. Behbudiy vahshiylarcha o‘ldirildi, Hamza Hakimzoda Niyoziy toshbo‘ron qilindi. Sho‘ro xodimlari ma’rifatparvar, erkparvar xalqimiz farzandlari o‘limidan o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida ustalik bilan foydalandilar. Jadid ma’rifatparvarlarining ba’zi ilg‘or vakillari g‘oyat murakkab bir sharoitda chekinishga, yangi tuzum mafkurasiga bo‘ysunishga majbur bo‘ldilar. Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lponlar adabiy jarayonda faol bo‘lishib, o‘z asarlarida xalqni ma’rifatga chorladilar, yangi tuzumning g‘ayriinsoniy, g‘ayriaxloqiy illatlarini ayovsiz fosh etdilar. Shu davrda adabiyot maydoniga kirib kelgan Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Mirtemir, Shayxzoda singari shoir va yozuvchilar hukmron mafkura talablariga bo‘ysunishga, murosasozlik qilishga majbur bo‘ldilar. Shu avlodga mansub Usmon Nosir, Botu, Elbek, Amin Umariy ijodida ham hukmron mafkuraga bo‘ysunish, u bilan murosasozlik qilish, bu mafkura ijodkorlar oldiga qo‘ygan talablarni bajarishga intilish ko‘zga tashlanadi. Shunday bo‘lsa ham bu ijodkorlar ijodi va shaxsi qoralandi, ularning ustidan har xil

PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI

ig‘volar, asossiz ayblovlar to‘qish avj oldi. Natijada bu o‘tkir iste’dod egalari qatag‘on qilindi, uzoq muddatlarga qamoq jazosiga mahkum etildilar. Ularning ko‘pchiligi qamoq muddatini o‘tab kelib, ijodiy faoliyatlarini davom ettirdilar, ko‘plari qamoqning chidab bo‘lmas og‘ir sharoitiga dosh berolmay uzoq o‘lkalarda vafot etdilar. Usmon Nosir shulardan biridir.

“Usmon Nosiriy oldida bizning hech uzib bo‘lmaydigan so‘ngsiz qarzimiz bor. Har safar uning so‘zidan-she’rlari va dostonlaridan bahrador bo‘lganda, doim shu qarz moziydan uzatilgan bir qo‘l kabi odamning yelkasidan tutadi”, deydi atoqli olim I.G‘afurov [Faфуров Иброҳим. 1: 238]. Favqulodda noyob iste’dod egasini asray olmaganimiz, ijodi uzoq vaqt xalqdan pinhon tutib kelingani ana shu uzilmas qarzlardan. Hatto shaxsga sig‘inish keskin qoralanib, qatag‘on qilingan begunoh kishilar oqlangach ham Usmon Nosir asarlarini xalqqa qaytarish, ijodini ilmiy o‘rganish, asarlarini nashr etish haqida yetarli darajada qayg‘urmadi. Mustaqillik epkinlari esib, o‘tmishda toptalgan qadriyatlarimiz, millat sha’ni, shavkati uchun jonlarini qurbon qilganlar ruhini tiriltirish, ular qoldirgan badiiy, ilmiy, ma’naviy, ma’rifiy merosni ro‘yobga chiqarishda ham sustkashlik qildik. Hatto Usmon Nosir va uning salaflari ijodi haqida noxolis fikrlar bildirishga, zamon bilan murosasozlik qilganliklarini pesh qilishga, shu bilan ular yaratgan badiiy asarlar qimmatini tushirishga harakatlar bo‘ldi. Ammo yuksak iste’dod bilan yaratilgan chinakam badiiy asar hech qachon izsiz qolib ketmaydi. Bugungi kunda Usmon Nosir ijodini qayta-qayta mutolaa qilib, hayratlar chulg‘aydi, endigina o‘spirinlik davridan yoshlik davriga qadam qo‘ygan o‘t-olov qalbning she’r ishqib bilan to‘lib-toshgani, teran badiiy mushohadalari, adabiyotning ijtimoiy vazifasini tom ma’noda anglab yetgani, turli janrlarda yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratgani qoyil qoldiradi. Ustoz I.G‘afurov uni nemislarning buyuk shoiri Henrix Heynega qiyoslaydi, uning kun botishi oldidan tabiatda kechadigan holatni aks ettirishi bir-biridan go‘zal ekanligini ta’kidlaydi. Usmon Nosir bu holatni atigi olti misrada ifodalagan. Heyneda bu sakkiz misrani tashkil etgan. Usmon Nosir:

Shafaq o‘chay deb qoldi,
Kaptar qonidek rangsiz...
Ko‘zlarimni uzmayman.

Deding: endi o‘char u
O‘tgan qaytib kelmaydi,
Ertani sevinib kut!

Hammasi tabiiy va ishontirarli. Yana ham muhimi, manzara ko‘z oldingizda aniq-tiniq gavdalanadi, “Ertani sevinib kut”-o‘ta o‘tli da’vat, u har qanday dilda hayajon qo‘zg‘atadi. O‘tgan kunning qaytarilmasligi, o‘tganning qaytmasligi-

achchiq haqiqat, ammo baribir ertani kutib yashash kerak! Mana oddiy falsafa! Henrix Heyneda ham xuddi shunday:

Qiz dengizning bo‘yida,
Xo‘rsinadi yuz bora.
Oftob botib quyida
Qayg‘uga solar qora.

Qizgina, yemagin g‘am,
Xo‘rsinmak nega kerak?
Bugun botsa oldindan

Orqadan chiqar erta... [Faafurov Ibrohim. 1: 245-246]

Ustoz bu o‘xshashlikdan hayajonlanib, ularni aka-ukaga mengzaydi. Bu yaxshi, chunki adabiyotlar, yozuvchi, shoirlar ijodining bir-biriga ta’siri, bir-biridan o‘rganishi tabiiy hol va bu ming yillardan buyon davom etib kelyapti. Usmon Nosir Heynening aynan shu she’rini o‘qigan-o‘qimagani noma’lum, ammo ikki iste’dodli shoir kun botishi va quyoshning qayta chiqishini o‘ziga xos tarzda ifodalagan va har ikkalasida ham bu nihoyatda chiroyli, ta’sirli yaratilgan.

Usmon Nosir hayoti va ijodi haqida zahmatkash olim, akademik Naim Karimov salmoqli ishlar qildi. “Usmon Nosir. Hayotiy lavhalar, hujjatlar, rivoyatlar” nomli monografiyasi shoir shaxsi, adabiy ijodi haqida ayni haqiqatlarni hikoya qilishi bilan g‘oyat qimmatlidir. Unda Usmon Nosirning butun hayoti barcha ziddiyatlari, qarama-qarshiliklari, nohaqlik vaadolatsizliklarga qarshi matonatlari kurashi xolislik bilan ko‘rsatib berilgan. Shoir ziddiyatli davrda yashadi. U dunyoga kelishi bilan sirli voqealarga duchor bo‘ldi, yetimlikning achchiq azobini tatib ulg‘aydi. Shoir jisman mahv etilganidan keyin o‘tgan uzoq muddat ichida u haqdagi xotiralar xira tortgani bois haqiqat va uydirmalar to‘lib-toshganidan qaysi biri haqiqat, qaysi biri uydirma ekanligini aniqlash ham mushkullashdi. Naim Karimov juda ko‘p tarixiy hujjatlar, zamondoshlari, tengdoshlarining xotiralariga asoslanib, uydirma va haqiqat aralashib ketgan o‘rinlarga aniqlik kiritdi, favqulodda noyob iste’dod egasi bo‘lgan Usmon Nosirning shoir bo‘lib shakllanishidagi asosiy omillarni, fojeasiga sabab bo‘lgan voqealarni xolislik bilan yoritdi. Ustoz munaqqidning bu sa’y-harakati chinakam jasorat, adabiyotshunoslik ilmiga qo‘sghan ulkan hissa, adabiyotimiz tarixidagi murakkab bir davrni to‘laqonli yoritishdagi katta muvaffaqiyat sifatida baholanishga loyiqidir. Monografiyada shoir ijodiy mahoratining o‘sib borishi, unga ilhom bergen adabiy muhit, ijtimoiy shart-sharoit, shoir shaxsiga xos xususiyatlarning asarlarida namoyon bo‘lishi kabilar ilmiy asoslab berilgan. “Atlas” dramasi Usmon Nosirning dramaturgiya janridagi ulkan muvaffaqiyati ekanligi o‘z vaqtida e’tirof etilgan. Drama bir necha bor

muhokama etilgan, Usmon Nosirning o‘zi ham uni teatr jamoalari o‘rtasida o‘qib bergen. Hamma asarga yuqori baho bergen, hatto qaysi teatrda qachon sahnaga qo‘yilishi ham aytilgan. Ammo shundan nariga o‘tilmagan. 1934 yilda yaratilgan drama ikki yil muhokamalarning markazida turgan. 1937 yilning qatag‘on shamoli avjga minib, shoир qamoqqa olingach, drama ham unutilgan. “Shu tarzda asar paydo bo‘lgandan beri bir yarim yil o‘tdi. Ana shu bir yarim yil mobaynida o‘zbek teatrlariga o‘rnashib olgan fatxullinlar Usmon Nosirga faqat maslahat berdilar. Bu maslahatlar esa 1937 yil mayiga qadar davom etdi, ammo asar sahnaning turfarang chiroqlarini ko‘rmadi”, [Каримов Наим. 2:193] deb yozadi iztirob bilan N.Karimov.

Monografiyada shoир shaxsi va ijodi to‘g‘risida ko‘pgina mavhum nuqtalar aniqlashtirilgan, bunda olim tarixiy hujjatlar, xotiralar, shoир haqida xalq orasida yurgan rivoyatlardan foydalangan. Abdulla Qahhorning “Sarob” romanidagi Murodxo‘ja, Saidiy obrazlari aslida Abdulla Qahhor va Usmon Nosirlarning ustozi Ashurali Zohiriy va Usmon Nosirning badiiy obrazlari ekanligini ta’kidlaydi olim. Buning uchun roman bilan Usmon Nosir boshidan o‘tgan voqealar o‘rtasida o‘xhashlik, uzviylik borligiga e’tiborni qaratadi. Romanni o‘qigan kishi haqiqatan ham Saidiy hayotining fojeaviy yakuni, uning ijodkor yoshlardan ekani, turli mafkuraviy qarama-qarshiliklar girdobida qolishi kabilar Usmon Nosir boshidan ham kechganligiga amin bo‘ladi. Romanda Murodxo‘ja portreti aynan Ashurali Zohiriy domlaning portreti ekanligi, Saidiyning opasinikiga borsa, pochchasi opasini taloq qilishi mumkinlididan bormasligi Usmon Nosirning o‘gay ota onasiga zulm qilishi sababli borolmasligi yozuvchi Abdulla Qahhor romanini real voqealar asosiga qurbanligini ko‘rsatadi, deydi olim. “Abdulla Qahhor she’riy iste’dod darajasi dargumon, muayyan g‘oyaviy va ijodiy maslakdan mahrum, aksilinqilobchi Murodxo‘ja domlaning hamtovoqlaridan biri-Saidiy siyosida Usmon Nosir taqdiri va hayotini ko‘rsatishga uringan. Romanda “sog‘lom, har bir harakatidan kuch-quvvat aks etib turgan, bejirim yigit “Saidiyning qo‘ng‘iroq sochlari”dan bo‘lak biror portret chizig‘i tasvir etilmagan. Ammo shunga qaramay, Usmon Nosir hayotining ayrim sahifalari Saidiy obraziga singdirib yuborilgan” [Каримов Наим. 2:119-120].

“Norbo‘ta” dostoni haqida gap ketganda, munaqqid muallif dostonni qayta-qayta ishlagani, sayqal bergani va undagi ilgari mavjud bo‘lgan ko‘p qusurlarni barataraf etgani, natijada doston o‘sha vaqtda va hozir ham fuqarolar urushi mavzuida yaratilgan eng yaxshi poetik asarlardan biri bo‘lib qolganligini alohida uqtirib o‘tadi.”...Usmon Nosir dostonni qayta ishslash jarayonida uni shunday bir maromga keltirganki, yigirma ikki yoshli shoirda shunday idrok va iste’dod qaerdan paydo bo‘lganiga qoyil qolmasdan iloj yo‘q!” [Каримов Наим. 2:138].

Bu e’tirof, bu hayrat bundan buyon ham davom etaveradi. Usmon Nosirning o‘z adabiy salaflari orasida tinib-tinchimas, ilhomni doim jo‘sib turadigan, adabiy jarayonning o‘ta faol ishtirokchilaridan biri bo‘lganligi hozirgi davr ijodkorlariga namunadir va I.G‘afurov, N.Karimov singari ustoz munaqqidlar ta’kidlaganlaridek, Usmon Nosir oldidagi qarzdorligimizni hech qachon va aslo unutmasligimiz lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Faafurov Иброҳим, Қисматнинг овози(Усмон Носир илҳомлари), “Мангу латофат, бадиалар, рисолалар, 2-китоб”, “ШАРҚ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Баш таҳририяти, Тошкент, 2008 йил, Б.238.
2. Каримов Наим, Усмон Носир. Ҳаётий лавҳалар, хужжатлар, ривоятлар. Истиқлол фидойилари туркумидан, Тошкент, “ШАРҚ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Баш таҳририяти, 1993 й.Б.193.